
29. To'g'ri burchakli uchburchakning katetlari 6 va 8 ga teng. Uchburchakning gipotenuzasi orqali o'tuvchi tekislik uchburchakning tekisligi bilan 30 burchak tashkil qiladi. Uchburchakning to'g'ri burchagi uchi bilan tekislik orasidagi masofani toping.
A) 2,4 B) 2 C) 2,5 D) 3

30. Uchburchakli og'ma prizmaning asosi tomoni 2 m ga teng bo'lgan muntazam uchburchakdan iborat. Agar prizmaning yon qirrasi asos tomoniga teng bo'lib, asos tekisligi bilan 60° li burchak hosil qilsa, uning hajmini toping.

A) $\frac{3}{8}m^3$ B) $3m^3$ C) $\frac{3}{2}m^3$ D) $6m^3$

Variant-19

1. O'quvchi noma'lum sonni 29 bo'lish o'rniga 37 ga bo'lib, 1827 sonini hosil qildi. Dastlabki bo'linmani toping.
A) 1331 B) 2441 C) 2321 D) 2331

2. $x;y;z$ butun sonlar bo'lib, $y<0$ va $\frac{4}{7x}=-\frac{3}{4y}=\frac{5}{8z}$ bo'lsa, $x;y;z$ sonlarini o'sish tartibida joylashtiring.
A) $x<y<z$ B) $z<y<x$
C) $y<x<z$ D) $y<z<x$

3. a^4+4b^4 soni tub son hamda a, b natural son bo'lsa, barcha a va b lar yig'indisini toping.
A) bunday sonlar ko'p
B) 56 C) 2 D) 27

4. Ifodani soddalashtiring:
$$\frac{x^3+27}{2x-2}\cdot\frac{x^2-1}{x^2+4x+3}\cdot\frac{6x+12}{3x^2-9x+27}:(x+2)$$
A) 2 B) 1 C) $2x-1$ D) $\frac{x+2}{2}$

5. Ikkita son o'rta proporsionali shu sonlardan kichigidan 6 ga ko'p, o'rta arifmetigi esa kattasidan 7 ga kam bo'lsa, shu sonlardan kichikini toping.
A) 18 B) 20 C) 24 D) 30

6. $(x-3)^6+(x^2-2x-1)^3=0$ tenglamaning barcha ildizlari yig'indisini (agar u bitta bo'lsa, shu ildizini o'zini) toping.
A) 3 B) 4 C) 1 D) 2

7. $|x^2-25|+|3x+15|=0$ tenglamaning ildizlari yig'indisini toping.
A) 0 B) 5 C) 10 D) -5

8. k ning qanday eng katta butun manfiy qiymatida $x^2+(k+2)^2x+2k-4=0$ tenglamaning ildizlari 2 dan kichik bo'ladi.
A) -2 B) -4 C) -1 D) -5

9. $\frac{(8-x)^2}{x-3}>0$ tengsizlikning $[-1;9]$ oraliqda yotuvchi butun yechimlari yig'indisini toping.
A) 42 B) 17 C) 31 D) 39

10. $|x^2+7x+10|+|x^2-4|>|2x^2+7x+6|$ tengsizlikning barcha butun yechimlari yig'indisini toping.
A) -6 B) -10 C) -7 D) -9

11. O'suvchi geometrik progressiyaninng birinchi va to'rtinchi hadlarining yig'indisi 27 ga, ikkinchi va uchinchi hadlari ko'paytmasi 72 ga teng bo'lsa uning dastlabki to'rtta hadi yig'indisini toping.
A) 40 B) 45 C) 50 D) 32

12. Hisoblang
$\cos1^\circ+\cos2^\circ+\cos3^\circ+...+\cos179^\circ$
A) 1 B) –1 C) 0 D) $\cos89^\circ$

13. Hisoblang: $\arccos(\cos3)$
A) 3 B) $\pi-3$ C) $\frac{\pi}{2}-3$ D) $\varnothing$

14. Agar $\begin{cases}tg\alpha+tg\beta=4\\ctg\alpha+ctg\beta=2\end{cases}$ bo'lsa, $tg(\alpha+\beta)$ ni toping.
A) 4 B) -4 C) 2 D) -2

15. $y=|3x+2|+|2x-3|$ funksiyaning eng kichik qiymatini toping.
A) 4,(3) B) 4 C) 4,(1) D) 5

16. $y=6\cos x\cdot tgx$ funksiyaning eng katta butun qiymatini toping.
A) 6 B) -5 C) -6 D) 5

17. Grafik ko'rinishda berilgan funksiyaning qiymatlar to'plamini toping.



A) $(-3; 0)$ B) $(-2; 5]$

C) $(-4; 3]$ D) $(-3; 4]$

18. Agar $2^a = 81$, $3^b = 8$ bo'lsa, $a \cdot b$ qiymatini toping.

A) 14 B) 12 C) 15 D) 18

19. Berilgan tengsizlikning eng katta butun ildizini toping:

$3^{1+x} \cdot 2^{1-x} + 3^x \cdot 2^{-x} < 10{,}5.$

A) -2 B) 0 C) -4 D) 1

20. Agar $\log_{\sqrt{10}+3}\left(\sqrt{7}-\sqrt{6}\right) = a$ bo'lsa, $\log_{\sqrt{7}+\sqrt{6}}\left(\sqrt{10}-3\right)$ ni a orqali ifodalang.

A) $\frac{1}{a}$ B) a C) $-\frac{1}{a}$ D) $\frac{1}{a^2}$

21. $\sin x \cdot \log_3 x \cdot \sqrt{3-x} = 0$ tenglamaning ildizlari yig'indisini toping.

A) 10 B) 6 C) 3 D) 4

22. k ning qanday eng katta butun qiymatida, $y = x^3 - kx^2 + 4kx + 5$ funksiya ekstremumga ega emas?

A) 11 B) 12 C) 13 D) 14

23. $\int_1^2 \left(x + \frac{1}{x}\right)^2 dx$ integralni toping.

A) $\frac{29}{6}$ B) $\frac{29}{3}$ C) $\frac{25}{3}$ D) $\frac{25}{6}$

24. Quyidagilardan qaysilari to'g'ri?

1) agar $b > 0$, $a > c > 0$ bo'lsa, u holda $\frac{a}{b} > \frac{c}{b}$ bo'ladi;

2) agar $a > 0$, $0 < b < c$ bo'lsa, u holda $\frac{a}{b} > \frac{a}{c}$ bo'ladi;

3) agar $c > 0$, $a > b > 0$ bo'lsa, u holda $\frac{a}{b} < \frac{a+c}{b+c}$ bo'ladi;

A) 1; 2; 3 B) 2; 3 C) 1; 2 D) 1; 3

25. Qutida "kombinatorika" so'zini hosil qiladigan harflar bor. Tavakkal tanlanganda "i" harfining chiqish ehtimolligini toping.

A) $\frac{1}{13}$ B) 13 C) $\frac{2}{13}$ D) $\frac{1}{26}$

★ **26.** Teng yonli ABC uchburchakda $AC = 5$; $BA = BC = 7$; AN va CM bissektrisalar. MN kesma uzunligini toping.

A) $2\frac{5}{6}$ B) $2\frac{11}{12}$ C) $2\frac{1}{6}$ D) $2\frac{7}{12}$

★ **27.** Rombning diagonallari a va $a\sqrt{3}$ bo'lsa, uning burchaklarini toping.

A) 45°;135° B) 30°;150°

C) 60°;120° D) 80°;100°

28. Aylana to'g'ri burchakli uchburchakning katta katetiga urinib, shu katet qarshisidagi burchak uchidan o'tadi, markazi esa gipotenuzada yotadi. Agar katetlarining uzunliklari 9 va 12 bo'lsa, aylanani radiusini toping.

A) $\frac{45}{8}$ B) $\frac{55}{8}$ C) $\frac{45}{16}$ D) $\frac{45}{4}$

29. Koordinata to'g'ri chizig'ida a va b sonlar belgilangan. Quyidagi keltirilgan tengsizliklardan qaysi biri noto'g'ri?



A) $a > -b$ B) $\frac{1}{a} < \frac{1}{b}$

C) $a+2 < b$ D) $\frac{1}{a+b} < 0$

30. Muntazam uchburchakli prizmaga silindr ichki chizilgan. Agar prizmaning asosining tomoni $2\sqrt{3}$, balandligi 3 ga teng bo'lsa, silindr to'la sirtini toping.

A) 8π B) 9π

C) 10π D) $8\sqrt{3}\pi$

Variant-20

1. Agar $\overline{abc}$, $\overline{bca}$, $\overline{cab}$ uch xonali natural sonlar yig'indisi 666 ga teng bo'lsa, $a+b+c$ ni toping.
A) 6 B) 7 C) 8 D) 2

2. Hisoblang:
$\frac{1}{16}+\frac{2}{18}+\frac{3}{16}+\ldots+\frac{15}{16}+\frac{16}{18}$
A) 8 B) 7 C) 9 D) 10

3. Agar $\frac{a+b}{a-b}=\sqrt{7}$ bo'lsa, $\frac{a}{b}+\frac{b}{a}$ ni hisoblang.

A) $\frac{15}{7}$ B) $\frac{13}{6}$ C) $\frac{8}{3}$ D) $\frac{16}{7}$

4. Ifodani qiymatini $a=18\sqrt{2}$ bo'lganda hisoblang:

$$\left(\left(\sqrt{a^3 3^{-3}}-\sqrt{27a^{-3}}\right):\left(\frac{a^2+9}{3a}+1\right)\right)\cdot\frac{(a-3)^{-1}}{\left(6a^3\right)^{-\frac{1}{2}}}-6$$

A) 30 B) 42 C) 36 D) -42

5. Kasrni qisqartiring: $\frac{\sqrt[4]{x}+\sqrt[4]{y}}{\sqrt{x}-\sqrt{y}}$.

A) $\frac{1}{\sqrt[4]{x}-\sqrt[4]{y}}$ B) $\sqrt{x}-\sqrt{y}$

C) $\sqrt[4]{x}+\sqrt[4]{y}$ D) $\frac{1}{\sqrt[4]{x}+\sqrt[4]{y}}$

6. Ahmad ikki kun, Arslon ikki kun ishlaganda bir ishning $\frac{5}{8}$ qismini bajarishadi. Agar Ahmad uch kun, Arslon ikki kun ishlasa, aynan o'sha ishning $\frac{7}{8}$ qismini bajarishardi. Ahmad bir o'zi ushbu ishni necha kunda tamomlaydi?
A) 4 B) 10 C) 8 D) 9

7. Tenglamani yeching:
$5x^3-10x^2+x-2=0$.
A) 1 B) -3 C) 0 D) 2

8. $\begin{cases} y^2 = x^2-6x+9 \\ x^2+2y=2 \end{cases}$ tenglamalar sistemasi nechta haqiqiy ildizga ega?
A) 3 ta B) 2 ta C) 4 ta D) $\varnothing$

9. $\sqrt{25-x^2} \le \frac{12}{x}$ tengsizlikni qanoatlantiradigan butun sonlar yig'indisini toping.
A) 12 B) 14 C) 10 D) 15

10. a ning qanday eng kichik butun qiymatida $-3x^2+9x+0{,}25 < a$ tengsizlik x ning barcha qiymatlarida o'rinli bo'ladi?
A) 7 B) 9 C) 8 D) 6

11. Arifmetik progressiyaning dastlabki 5 ta hadi yig'indisi 100 ga teng bo'lib, barcha hadlari natural sonlardan iborat. Bu progressiyaning eng katta hadining eng katta qiymati nechaga teng bo'lishi mumkin?
A) 22 B) 37 C) 38 D) 50

12. Ifodani soddalashtiring:
$\left(\cos^{-1}3\alpha+ctg\left(\frac{5}{2}\pi+3\alpha\right)\right)\cdot ctg\left(\frac{5}{4}\pi-\frac{3\alpha}{2}\right)$.

A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

13. Ifodani soddalashtiring:
$\left(tg5^\circ + tg3^\circ\right)\cdot ctg8^\circ + \left(tg5^\circ - tg3^\circ\right)\cdot ctg2^\circ$.

A) 1 B) $\sin 2^\circ$ C) $\cos 2^\circ$ D) 2

14. Hisoblang: $\arcsin(\sin 10)$

A) $3\pi - 10$ B) 10 C) $10 - 3\pi$ D) $\varnothing$

15. $tgx = 2$ tenglamaning $\left(-\frac{\pi}{2};\frac{\pi}{2}\right)$ oraliqqa tegishli ildizlari soni nechta?

A) 2 B) 1 C) 3 D) 4

16. $f(x) = 7^{-x}$, $g(x) = 8^{-x}$, $h(x) = 9^{-x}$ bo'lsa, $f(44)$, $g(33)$, $h(22)$ larni o'sish tartibida yozing.

A) $f(44) < g(33) < h(22)$
B) $g(33) < h(22) < f(44)$
C) $g(33) < f(44) < h(22)$
D) $h(22) < f(44) < g(33)$

17. Chizmada $[-5; 4]$ kesmada berilgan $y = g(x)$ funksiya grafigi tasvirlangan. $g(x) \le -2$ tengsizlikni qanoatlantiradigan x ning barcha qiymatlarini toping.



A) $[-3,5; 0]$ B) $[-2; 1]$

C) $[-5; -3]\cup[2; 4]$ D) $[-5; -2]\cup[1; 4]$

18. Tenglamalar sistemasini yeching:
$\begin{cases} x^{13} = 12^y \\ x^2 - 11x - 12 = 0 \end{cases}$

A) (12; 13) B) (12; 13); (13; 12)

C) (12; 13); (−12; −13) D) (−12; −13)

19. Musbat sonni toping.

A) $\log_{\frac{\pi}{3}} \frac{\pi}{4}$ B) $\log_{\frac{\pi}{3}} \cos 17^\circ$

C) $\log_{\frac{\pi}{3}} tg46^\circ$ D) $\log_{\sqrt{1,0001}} tg40^\circ$

20. Agar $-2 < \log_{0,5} a < -1$ va $1 < \log_{0,5} b < 3$ bo'lsa, $a\cdot b$ ning qabul qilishi mumkin bo'lgan barcha qiymatlarini toping.

A) (0,25; 2) B) $(2; 3\sqrt{3})$

C) $(1; \sqrt{3})$ D) $(0,25; \sqrt{3})$

21. Agar $f(x) = g(3x + 2)$ shartni qanoatlantiruvchi $f(x)$ va $g(x)$ funksiyalar uchun $g'(11) = -12$ bo'lsa, $f'(3)$ ni toping.

A) -36 B) 36 C) 25 D) -25

22. a ning qanday qiymatlarida $\int_3^a (3x-1)dx = 4$ tenglik o'rinli bo'ladi?

A) $\frac{1 \pm 2\sqrt{22}}{3}$ B) $\frac{2 \pm \sqrt{22}}{3}$

C) ± 3 D) ± 5

23. To'g'ri berilgan integrallash formulalarini tanlang:

1) $\int x^p dx = \frac{x^{p+1}}{p+1} + C,\ p \ne -1$

2) $\int (b - kx)^p dx = \frac{(b-kx)^{p+1}}{k\cdot(p+1)} + C,\ p \ne -1$

3) $\int g^p(x)\cdot g'(x)dx = \frac{g^{p+1}(x)}{p+1} + C,\ p \ne -1$

A) 1; 3 B) 1; 2; 3 C) 2; 3 D) 1; 2

24. 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8 raqamlardan foydalangan holda, nechta turli ikki xonali har xil raqamlardan iborat sonlar hosil qilish mumkin?

A) 336 B) 56 C) 42 D) 28

25. Teng yonli uchburchakning asosiga tushirilgan balandligi 6 ga, yon

tomoniga tushirilgan balandligi 8 ga teng. Uchburchakning yuzini toping.

A) $12,5\sqrt{5}$ B) $14\sqrt{5}$

C) $14,4\sqrt{5}$ D) $12\sqrt{5}$

26. Agar to'g'ri to'rtburchakning perimetri 14 ga teng bo'lsa, uning yuzasini eng katta qiymatini toping.

A) 14 B) 12,25 C) 12 D) 12,75

27. Uchburchakning katta katetiga diametri shu katet bo'lgan yarim aylana yasalgan. Agar kichik katetning uzunligi 30 sm ga, to'g'ri burchak uchini gipotenuza va yarim aylana kesishadigan nuqta bilan tutashtiruvchi vatar 24 sm ga teng bo'lsa, yarim aylananing radiusini toping.

A) 30 sm B) 15 sm

C) 20 sm D) 25 sm

28. $M(2;\ 3)$ nuqtadan $5x-4y-20=0$ to'g'ri chiziqqa perpendikuliyar bo'lib o'tuvchi to'g'ri chiziqning tenglamasini tuzing.

A) $2x-3y+5=0$ B) $x-3y+7=0$

C) $8x-10y-23=0$ D) $4x+5y-23=0$

29. Parallelogramning bir tomoni orqali unga qarama–qarshi tomonidan a masofada yotuvchi tekislik otkazilgan. Parallelogramning diagonallari kesishish nuqtasidan berilgan tekislikgacha bo'lgan masofani toping.

A) $\frac{a}{\sqrt{2}}$ B) $\frac{a}{\sqrt{3}}$ C) $\frac{a}{2}$ D) $\frac{a}{3}$

30. O'lchamlari $60\times40\times5$ sm bo'lgan to'g'ri burchakli parallelepiped shaklidagi mis g'o'lasidan qalinligi 1 mm bo'lgan tunuka taxtasi tayyorlandi. Bu tunuka taxtaning yuzini toping.

A) $1,2\,m^2$ B) $120\,sm^2$

C) $120\,m^2$ D) $12\,m^2$

Variant-21

1. Hisoblang:

$$\left(2^2+6^2+10^2+14^2+18^2\right)-$$
$$-\left(1+5^2+9^2+13^2+17^2+18^2\right)$$

A) 95 B) 104 C) 128 D) 144

2. $a=2-\sqrt{3}$ va $b=2+\sqrt{3}$ bo'lsa, a^3+b^3 ning qiymatini toping.

A) 24 B) 14 C) 48 D) 52

3. $\frac{x}{ax-2a^2}-\frac{2}{x^2+x-2ax-2a}\cdot\left(1+\frac{3x+x^2}{3+x}\right)$ ifodaning $a=0,25$ dagi qiymatini toping.

A) 1/16 B) 4 C) 1/4 D) 16

4. $a+b+c=2$ va $ab+ac+bc=4$ bo'lsa, $a^3+b^3+c^3-3abc$ ifodaning qiymatini toping.

A) 16 B) -16 C) 24 D) -24

5. $\sqrt{4^8+2\cdot6^8+9^8}-\sqrt{4^7+6^8+9^8}$ ni hisoblang.

A) 256 B) 512 C) 64 D) 128

6. Uchta sonning uchinchisi ikkinchisidan nechta ortiq bo'lsa, ikkinchisi birinchisidan shuncha ortiq. Bu sonlardan ikkita kichigining ko'paytmasi 165, ikkita kattasining ko'paytmasi 285 ekanligi ma'lum. Shu uchta sondan uchinchisini toping.

A) 13 B) 15 C) 19 D) 17

7. Tenglama nechta butun ildizlarga ega? $\left|x^2-2x-15\right|=2x-x^2+15$

A) 6 B) 8 C) 9 D) 7

8. Tenglamaning ildizlari yig'indisini toping: $\sqrt{7-\sqrt{7+x}}=x$

A) 2 B) -1 C) -6 D) $\varnothing$

9. Tengsizlikni yeching:

$$(5-2x)^{10}<(-x^2-4x-7)^5$$

★ XORAZM ILM ZIYO ★

A) $(-\infty; 2,5)$ B) $(1; 2,5)$

C) $(1; 2,5) \cup (2,5; 3)$ D) $\varnothing$

10. m ning nechta natural qiymatida $(m-4)x^2 - 2x + m + 1 > 0$ tengsizlik x ning istalgan qiymatida o'rinli bo'ladi?

A) 2 B) cheksiz ko'p qiymatida

C) 4 D) 1

11. Agar geometrik progressiyada $b_5 - b_1 = 18$ va $b_3 - b_1 = 12$ bo'lsa b_{11} ni toping.

A) $-\frac{4}{94}$ B) $-\frac{3}{8}$ C) $-\frac{16}{27}$ D) $-\frac{3}{4}$

12. Ifodani soddalashtiring:

$$(2(\sin\alpha)^{-1} + 2(tg\alpha)^{-1}) \cdot \left(tg\frac{\alpha}{2}\right)^{-1}$$

A) $ctg^2\frac{\alpha}{2}$ B) $2ctg^2\frac{\alpha}{2}$

C) $2tg^2\frac{\alpha}{2}$ D) $tg^2\frac{\alpha}{2}$

13. Hisoblang: $\cos 40^\circ + \cos 80^\circ - \cos 20^\circ$

A) $\sin 20^\circ$ B) $\cos 20^\circ$ C) 1 D) 0

14. $\sqrt{3}\sin x + \frac{3}{2} = 0$ tenglamaning 2 ga yaqin ildizini toping.

A) $\frac{\pi}{3}$ B) $-\frac{2\pi}{3}$ C) $\frac{4\pi}{3}$ D) $-\frac{\pi}{3}$

15. $f(x) = \left(\frac{1}{3}\right)^{x^2-6x+11}$ funksiyaning qiymatlari sohasini toping.

A) $[-9; \infty)$ B) $\left(0; \frac{1}{9}\right]$

C) $(0; 9]$ D) $[9; \infty)$

16. Toq ham, juft ham bo'lmagan funksiyani ko'rsating.

A)



B)



C)



D)



17. Tenglamalar sistemasini yeching:

$$\begin{cases} 11^x + 8^y = 75 \\ 3 \cdot 11^x + 8^y = 97 \end{cases}$$

A) (1; 2); (2; 1) B) (1; 2)

C) (1; – 2) D) (1; 2); (–1; – 2)

18. Agar $\log_a b = -11$ bo'lsa, $\log_a \sqrt[3]{\frac{a}{b}}$ ning qiymatini toping.

A) 2 B) 3 C) 4 D) 5

19. $y = \ln(3x^2 - 12x + 15)$ funksiyaning qiymatlar to'plamini toping.

A) $(1; \infty)$ B) $[1; \infty)$

C) $[1; \ln 3]$ D) $[\ln 3; \infty)$

20. $\log^2_{0,2}(x+1) < 4$ tengsizlikni yeching.

A) $(0;1) \cup (24;\infty)$ B) $(-0,96;1) \cup (24;\infty)$

C) $(-0,96;24)$ D) $(1;24)$

21. $y = f(x)$ funksiyaning $(-2;10)$ nuqtasidan o'tkazilgan urinma $(1;10)$ nuqtadan o'tadi. Shu funksiyaning $x_0 = -2$ nuqtadagi hosilasini toping.

A) 10 B) -10 C) 20 D) 0

22. $\int_0^1 \frac{4}{3x+2}dx$ integralni hisoblang.

A) $0,3 \cdot \ln 25$ B) $1,3 \cdot \ln 2,5$

C) $\frac{4}{3} \cdot \ln 2,5$ D) $0,(3) \cdot \ln 2,5$

23. Quyida keltirilgan tasdiqlardan qaysilari to'g'ri?

1) To'g'ri to'rtburchakning diagonallari tengdir; 2) Teng yonli uchburchakning ixtiyoriy bissektrisasi uning medianasi bo'ladi; 3) ixtiyoriy uchburchakka tashqi aylana chizish mumkin; 4) ixtiyoriy uchta to'g'ri chiziq kamida bitta umumiy nuqtaga ega.

A) 2; 4 B) 1; 4 C) 2; 3 D) 1; 3

24. Do'konda 7 xil pidjak, 5 xil shim va 4 xil galstuk sotilmoqda. Pidjak, shim va galstukdan iborat komplektni nechta usul bilan sotib olsa bo'ladi?

A) 146 B) 140 C) 148 D) 155

25. Ikkita katetdan teng uzoqlikda joylashgan hamda gipotenuzada yotgan nuqta gipotenuzani $\frac{50}{3}$ va $\frac{100}{3}$ sm uzunlikdagi kesmalarga ajratadi. Uchburchakning yuzini toping.

A) $100\,sm^2$ B) $500\,sm^2$

C) $50\,sm^2$ D) $1000\,sm^2$

26. Yon tomoni 41 *sm*, balandligi 40 *sm* va o'rta chizig'i 45 *sm* bo'lgan teng yonli trapetsiyaning asoslarini toping.

A) 38 *sm*, 52 *sm* B) 24 *sm*, 66 *sm*

C) 42 *sm*, 48 *sm* D) 36 *sm*, 54 *sm*

27. ABC uchburchakda $AB = 5$, $BC = 6$ va $CA = 7$ bo'lsin. Unga ichki chizilgan aylanaga AC tomonga parallel qilib o'tkazilgan urinma ABC uchburchakdan BMN uchburchak ajratadi. BMN uchburchakka ichki chizilgan aylana radiusining ABC uchburchakka ichki chizilgan aylana radiusiga nisbatini toping.

A) $\frac{2}{9}$ B) $\frac{5}{18}$ C) $\frac{1}{3}$ D) $\frac{7}{18}$

28. Agar $A(-2;1)$ va $B(a;-6)$ nuqtalar Oy o'qiga parallel ravishda o'tuvchi bir to'g'ri chiziqqa tegishli bo'lsa, a ning qiymatini toping.

A) 2 B) -1 C) -2 D) 1

29. Teng yonli trapetsiyaning balandligi kichik asosga teng va katta asosdan uch marta kichik. Trapetsiyaning diagonallari uning katta asosidan o'tuvchi P tekislik bilan α burchak tashkil etadi. Agar $\cos\alpha = \sqrt{0,818}$ bo'lsa, trapetsiya tekisligi va P tekislik orasidagi ikki yoqli burchakning kosinusini toping.

A) 0,3 B) 0,9 C) 0,7 D) 0,5

30. Piramidaning asosi yon tomonlari 12 va ular orasidagi burchak 60 ga teng bo'lgan teng yonli uchburchakdan iborat. Agar piramidaning barcha yon qirralari asos tekisligi bilan 60 burchak tashkil qilsa, uning hajmini toping.

A) $72\sqrt{3}$ B) $144\sqrt{3}$

C) $100\sqrt{3}$ D) $125\sqrt{3}$

Variant-22

1. 6 ga karrali bo'lmagan a va b juft sonlarini 6 ga bo'lganda har xil qoldiq qoladi. $a+b$ sonini 6 ga bo'lganda qoldiq nechaga teng bo'ladi?

A) 2 B) 3 C) 0 D) 4

2. $\frac{3}{7}$ ning kasr qismini 2018 – raqamini toping.
A) 2 B) 4 C) 5 D) 8

3. Ifodani soddalashtiring.
$$\frac{a^4-10a^2+169}{a^2+6a+13}$$
A) $a^2-5a+13$ B) a^2+13
C) $a^2-6a+13$ D) $a^2-3a+13$

4. Agar $a-b=\sqrt{x}+3$ bo'lsa, a va b lar uchun to'g'ri munosabatni aniqlang.
A) $a>b$ B) $a\le b$
C) $a<b$ D) $a=b+1$

5. Hovuzdagi suv bo'shatila boshlaganidan bir soat o'tgach, unda $400\,m^3$ suv qoldi va yana uch soat vaqt o'tgach esa $250\,m^3$ suv qoldi. Dastlab hovuzda qancha (m^3) suv bo'lgan?
A) 525 B) 450 C) 600 D) 475

6. $\left(\frac{x^2}{9}+\frac{16}{x^2}\right)-2\cdot\left(\frac{x}{3}-\frac{4}{x}\right)-\frac{19}{9}=0$ tenglamaning ildizlari ko'paytmasini toping.
A) 144 B) 12 C) -12 D) 10

7. Tenglamani yeching:
$$\sqrt{x+\sqrt{4x+\sqrt{16x+\ldots+\sqrt{4^{10}\cdot x+3}}}}=$$
$$=\sqrt{x}+1.$$
A) 2^{20} B) 2^{-20} C) 4^{20} D) 4^{-20}

8. Agar $x^2-6x+3=0$ bo'lsa, $x^2+\frac{9}{x^2}$ ning son qiymatini toping.
A) 30 B) 23 C) 15 D) 18

9. Agar $x<-1$, $y>1$ bo'lsa, quyidagi javoblardan qaysi biri doim o'rinli?
A) $y^5>x^3$ B) $x^4>y$
C) $x^2<y^2$ D) $x^6<y^2$

10. $x+4<\sqrt{x+46}$ tengsizlikni yeching.
A) $[-46;\,0)$ B) $[-46;\,3)$
C) $[-46;\,1)$ D) $[-46;\,49)$

11. $\left\{2-\sqrt{2}\right\}+\left\{2+\sqrt{2}\right\}+\left\{4-\sqrt{4}\right\}+$
$+\left\{4+\sqrt{4}\right\}+\left\{6-\sqrt{6}\right\}+\left\{6+\sqrt{6}\right\}+\ldots$
$+\left\{2018-\sqrt{2018}\right\}+\left\{2018+\sqrt{2018}\right\}$
hisoblang. Bunda $\{a\}-a$ sonining kasr qismi.
A) 2018 B) 2017 C) 1009 D) 987

12. Arifmetik progressiyada $a_{17}=8a_{10}$ bo'lsa, uning dastlabki o'n yettita hadi yig'indisini toping.
A) 0 B) 34 C) 4 D) 17

13. Hisoblang: $\frac{\sin 60^\circ}{\sin 20^\circ}-2\cdot\cos 40^\circ$
A) $\sqrt{3}$ B) 2 C) 1 D) $\frac{\sqrt{3}}{2}$

14. $\frac{\left|\log_{0,5}\left(tg\frac{\pi}{3}\right)\right|}{\log_{0,5}\left(tg\frac{\pi}{3}\right)}+\frac{3\cdot\left|3\sqrt{3}-2\sqrt{7}\right|}{3\sqrt{3}-2\sqrt{7}}+$
$+\frac{9\cdot\left|\arccos(-0,5)-\frac{\pi}{2}\right|}{\arccos(-0,5)-\frac{\pi}{2}}$ ifodani qiymatini toping.
A) 6 B) 4 C) 5 D) 10

15. Tenglamani yeching:
$$ctg\left(\frac{\pi}{2}x-\pi\right)=1$$
A) $\frac{1}{2}+2k,\ k\in Z$ B) $\frac{1}{2}+k,\ k\in Z$
C) $\frac{\pi}{2}+\pi k,\ k\in Z$ D) $\frac{\pi}{2}+2\pi k,\ k\in Z$

16. $y=(x+3)^{\frac{6}{7}}$ funksiyaning aniqlanish sohasini toping.

A) $(-\infty;\infty)$ B) $(-\infty;-3)\cup(3;\infty)$

C) $(-3;\infty)$ D) $(-\infty;-3)\cup(-3;\infty)$

17. Tenglamalar sistemasini yeching:

$$\begin{cases} x\cdot 2^x - y\cdot 4^y = x\cdot 4^y - y\cdot 2^x \\ 3^x\cdot 9^y = 81 \end{cases}$$

A) $(4;-4);(-2;-1)$ B) $(-4;-4);(2;1)$

C) $(-4;4);(2;1)$ D) $(-4;4);(-2;1)$

18. Ifodani soddalashtiring:

$$\frac{1-\log_a^3 b}{(\log_a b+\log_b a+1)\cdot\log_a\frac{a}{b}}\cdot\log_{b^2} a.$$

A) -2 B) $\frac{1}{2}$ C) 1 D) 0

19. $\left|\lg|x+1|\right| = x-3$ tenglama nechta yechimga ega?

A) 2 B) 3 C) 4 D) 1

20. $f(x)=\left|x^2-2x-3\right|-\left|x+2\right|$ funksiyaning $x=0$ nuqtadagi hosilasini toping.

A) 2 B) 3 C) 4 D) 1

21. $y=4x^5-15x^4-5$ funksiyaning $(-1;1)$ oraliqdagi eng katta qiymatini toping.

A) -2 B) -25 C) -5 D) -3

22. $\int\limits_{\frac{\pi}{4}}^{\pi}\cos\left(3x-\frac{\pi}{4}\right)dx$ integralni hisoblang.

A) $\frac{2}{3}\left(\frac{\sqrt{2}}{2}+1\right)$ B) $\frac{1}{3}\left(\frac{\sqrt{2}}{2}+1\right)$

C) $\frac{2}{3}\left(\frac{\sqrt{2}}{2}-1\right)$ D) $\frac{1}{3}\left(\frac{\sqrt{2}}{2}-1\right)$

23. Bir noma'lumli chiziqli tenglama nechta ildizga ega bo'lishi mumkin?

1) bitta ildizga; 2) cheksiz ko'p ildizga; 3) ildizi yo'q

A) faqat 2 va 3 B) faqat 1 va 3

C) faqat 1 D) 1; 2; 3

24. Tennis turnirida 9 ta sportchi ishtiroq etmoqda. Tennischilar necha xil usul bilan oltin, kumush va bronza medallarini yutishi mumkin?

A) 360 B) 504 C) 990 D) 720

25. To'g'ri burchakli uchburchakning yuzi 9 ga va o'tkir burchagi 15° ga teng. Uchburchakning medianalar kesishish nuqtasidan gipotenuzagacha bo'lgan masofani toping.

A) $\frac{\sqrt{2}}{4}$ B) $\frac{\sqrt{3}}{2}$ C) $2\sqrt{2}$ D) $\frac{\sqrt{2}}{2}$

26. Yon tomoni 17 ga teng bo'lgan teng yonli trapetsiyaga diametri 15 ga teng bo'lgan aylana ichki chizilgan bo'lsa, trapetsiyaning asoslarini toping.

A) 12; 25 B) 9; 25 C) 20; 25 D) 19; 25

27. ABC uchburchakka tashqi chizilgan aylananing A nuqtani o'z ichiga olmagan BC yoyi o'rtasi M nuqta bo'lsin. AM kesma BC tomonni N nuqtada kesadi. Agar $AB=8$, $BC=9$ va $CA=7$ bo'lsa, $BN-NC$ ni hisoblang.

A) 0,8 B) 0,6 C) 0,5 D) 1

28. Uchlari $A(4;2)$, $B(6;-5)$ va $C(-5;4)$ nuqtalarda bo'lgan uchburchak berilgan. B uchidan tushirilgan balandlik yotuvchi to'g'ri chiziq tenglamasini tuzing.

A) $x+y-1=0$ B) $2x+9y+33=0$

C) $9x-2y-64=0$ D) $3x+y-22=0$

29. Ox o'qida $A(2;3;5)$, $B(-1;3;4)$ nuqtalardan baravar uzoqlashgan $C(x;0;0)$ nuqtani toping.

A) $C(-3;0;0)$ B) $C(2;0;0)$

C) $C(-4;0;0)$ D) $C(-2;0;0)$

30. Qirrasi 50 sm ga teng kubning ichini qirrasi 5 sm ga teng kubchalardan nechtasi bilan to'ldirish mumkin?
A) 100 B) 1000 C) 200 D) 2000

Variant-23

1. Ikki son yig'indisi 242 ga, bu sonlardan kattasini kichigiga bo'lganda bo'linma 4 ga, qoldiq esa 22 ga teng. Sonlardan kichigini toping.
A) 52 B) 44 C) 42 D) 56

2. $\dfrac{7}{1+\dfrac{2}{x-1}}$ kasr ma'noga ega bo'lmaydigan barcha x lar yig'indisini toping.
A) 0 B) -1 C) 1 D) -2

3. Ifoda qiymatini $x=\dfrac{10}{3}$ bo'lganda hisoblang:
$(x-5)^3+3(x-5)^2+3(x-5)+1.$
A) $\dfrac{8}{27}$ B) $-\dfrac{8}{27}$ C) $\dfrac{1000}{27}$ D) $-\dfrac{64}{27}$

4. Agar $a\ge 0,\ b>0,\ \sqrt{a}\le b$ bo'lsa,
$f(a;b)=\sqrt{\dfrac{a+b^2}{b}+2\sqrt{a}}-\sqrt{\dfrac{a+b^2}{b}-2\sqrt{a}}$
ifodani soddalashtiring.
A) 1 B) $2\sqrt{b}$ C) $\dfrac{2\sqrt{ab}}{b}$ D) $2\sqrt{ab}$

5. Ifodani soddalashtiring:
$\dfrac{x^3+27}{2x-2}\cdot\dfrac{x^2-1}{x^2+4x+3}\cdot\dfrac{6x+12}{3x^2-9x+27}.$
A) $x+2$ C) $2x+1$
B) $\dfrac{x+2}{x-1}$ D) $\dfrac{x+2}{2}$

6. Mobil telefon to'liq quvvatlantirilganda 4 soat suhbatlashish yoki 12 soat kutish holatiga yetadigan quvvat oladi. Yo'lovchi poyezdga chiqishdan oldin mobil telefonni to'liq quvvatlab oldi va yurgan vaqtning yarmida suhbatlashib ketdi. Agar mobil telefondagi quvvat to'liq yo'lga ketgan va poyezddan tushayotgan payt tugagan bo'lsa, yo'lovchi poyezdda qancha vaqt yurgan.
A) 5 yarim soat B) 8 soat
C) 4 yarim soat D) 6 soat

7. Tenglamani yeching:
$\sqrt{15-x}+\sqrt{3-x}=6.$
A) -2 B) 1 C) -3 D) -1

8. $\begin{cases} ax=x^{1-b}+2 \\ cx=x^{b-1}-1 \end{cases}$ bo'lsa, c ni a va x orqali ifodalang.
A) $\dfrac{3-ax}{x(ax-2)}$ B) $\dfrac{ax-3}{x(ax-2)}$
C) $\dfrac{3-ax}{ax-2}$ D) $ax-2$

9. Ushbu $(x^2+3x+1)\cdot(x^2+3x+3)\le 35$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi butun sonlar nechta?
A) 6 ta B) 7 ta C) 5 ta D) 4 ta

10. $\left|\dfrac{6-2x}{1+3x}\right|>0$ tengsizlikni yeching.
A) $\left(-\infty;-\dfrac{1}{3}\right)\cup\left(-\dfrac{1}{3};3\right)\cup(3;\infty)$
B) $\left(-\infty;-\dfrac{1}{3}\right)\cup\left(-\dfrac{1}{3};\infty\right)$ C) $(-\infty;\infty)$
D) $\left(-\infty;-\dfrac{1}{3}\right)\cup\left(-\dfrac{1}{3};2\right)\cup(2;\infty)$

11. Maxraji musbat bo'lgan geometrik progressiyaning uchinchi hadi 9 ga, birinchi va ikkinchi hadlari yig'indisi 4 ga teng bo'lsa, ushbu progressiyaning beshinchi hadini toping.
A) 80 B) 91 C) 81 D) 78

12. $\dfrac{1}{\cos 200^\circ}-tg170^\circ\cdot tg20^\circ$ ifodani qiymatini toping.

A) 1 B) -1 C) 0 D) -2

13. Hisoblang.

$ctg15^\circ + ctg30^\circ + ctg45^\circ + ... + ctg165^\circ$

A) 0 B) $ctg89^\circ$ C) -1 D) 1

14. Hisoblang: $\arccos(\cos 4)$

A) $2\pi - 4$ B) 3 C) $\frac{\pi}{2} - 3$ D) $\varnothing$

15. $6\sin^2 x + 5\sin x \cdot \cos x + 3\cos^2 x = 2$ tenglamaning $[-\pi; 0]$ kesmada nechta ildizi bor?

A) 1 B) 3 C) 2 D) 4

16. Agar

$f(x) = (a + b - 4) \cdot x^3 + 2x^2 + (b - 1) \cdot x$

juft funktsiya berilgan bo'lsa, $f(a)$ ning qiymatini toping.

A) 12 B) 14 C) 20 D) 18

17. Juft funksiyani tanlang.

A)



B)



C)



D)



18. $2^{x-1} = x + 2$ tenglama nechta haqiqiy yechimga ega?

A) 1 ta B) 2 ta C) 3 ta

D) haqiqiy yechimga ega emas

19. $\left\{\frac{\{\lg 200\}}{\{\lg 50\}}\right\} + \{\log_5 12{,}5\}$ ni hisoblang.

Bunda $\{a\} - a$ soninng kasr qismi.

A) 0,5 B) 1 C) $\log_5 2$ D) $\log_5 4$

20. $\log_{x-1} x^2 = \log_{x-1}(6x - 8)$ tenglamaning ildizlari soni x_0 bo'lsa, $x_0 + 5$ ni toping.

A) 6 B) 7 C) 8 D) 9

21. $\left|\lg|x - 1|\right| = x + 1$ tenglama nechta yechimga ega?

A) 2 B) 3 C) 4 D) 1

22. Agar $f(x) = 6 + 5tg^2 2x$ bo'lsa, $f'(\pi)$ ni toping.

A) 5 B) 1 C) 0 D) 2

23. $\int_{-1}^{0} (x + 1)(x^2 - 2)dx$ integralni hisoblang.

A) 13/12 B) -11/12

C) -13/12 D) 11/12

24. Quyida keltirilgan tasdiqlardan qaysilari to'g'ri?

1) Kub – barcha yoqlari kvadratlardan iborat ko'pyoqdir; 2) Parallelepiped – barcha qirralari trapetsiyadan iborat ko'pyoqdir; 3) Prizma - asoslari deb ataladigan ikki yog'i parallel tekisliklarda yotuvchi, qolgan yoqlari parallelogrammlardan iborat ko'pyoqdir;

A) 1; 2; 3 B) 2; 3 C) 1; 2 D) 1; 3

25. 10 ta o'quv fanidan bir kunlik o'quv jadvaliga 6 ta har xil darslarni necha xil usul bilan joylashtirish mumkin?

A) 60480 B) 6048 C) 30240 D) 151200

26. To'g'ri burchakli uchburchakning yuzi 9 ga va o'tkir burchagi 75° ga teng. Uchburchakning medianalar kesishish

nuqtasidan gipotenuzagacha bo'lgan masofani toping.

A) $\frac{\sqrt{2}}{4}$ B) $\frac{\sqrt{3}}{2}$ C) $2\sqrt{2}$ D) $\frac{\sqrt{2}}{2}$

27. Ikkita bir xil r radiusli aylanalar tashqi ravishda urinadi. Radiusi 5 ga teng bo'lgan uchinchi aylana bu aylanalarga tashqi ravishda A va B nuqtalarda urinadi. Agar $AB=6$ bo'lsa, r ni toping.

A) $\frac{15}{4}$ B) $\frac{11}{8}$ C) $\frac{15}{2}$ D) $\frac{30}{11}$

28. ABC uchburchakka ichki chizilgan aylana markazidan AB tomonga parallel to'g'ri chiziq o'tkazilgan. Bu to'g'ri chiziq BC tomonni M nuqtada, AC tomonni esa N nuqtada kesib o'tadi. Agar $AB=8$, $MN=5$ bo'lsa, $ABMN$ to'rtburchakning perimetrini toping?

A) 20 B) 22 C) 18 D) 21

29. Markazi $O(0;3)$ nuqtada va $A(2;0)$ va $B(-2;6)$ nuqtalardan o'tuvchi aylana tenglamasini tuzing.

A) $x^2+(y-3)^2=13$

B) $(x-3)^2+(y-3)^2=13$

C) $x^2+(y-3)^2=\sqrt{13}$

D) $x^2+(y-3)^2=169$

30. Barcha qirralari $\sqrt{1,5}$ ga teng bo'lgan uchburchakli piramidaga ichki chizilgan shar radiusini toping.

A) 2,5 B) 1 C) 0,25 D) 0,5

Variant-24

1. $83m07n$ soni 8 ga bo'linadi. Agar bu son 6 ga ham bo'linsa, u holda m ning o'rniga qo'yilishi mumkin bo'lgan barcha raqamlar yig'indisini toping.

A) 15 B) 10 C) 18 D) 12

2. Hisoblang

$$\left(\frac{\sqrt{6}+\sqrt{5}}{\sqrt{2}+1}\cdot\frac{\sqrt{6}-\sqrt{5}}{\sqrt{2}-1}\right):\left(\frac{1}{\sqrt{3}}-\frac{\sqrt{3}}{9}+\frac{1}{\sqrt{27}}\right)$$

A) 1 B) $3\sqrt{3}$ C) $\sqrt{3}$ D) $\frac{\sqrt{3}}{3}$

3. Ifodani soddalashtiring:

$$\frac{x}{2}\cdot\sqrt[3]{\frac{y^5}{x^2}}:\sqrt[3]{\frac{xy^4}{8}}.$$

A) $y^{\frac{1}{6}}+4$ B) $y^{\frac{1}{6}}$ C) y D) $y^{\frac{1}{3}}$

4. a natural soni uchun $a^2-1=8^{27}\cdot(2^{79}+1)$ bo'lsa, $\frac{a-1}{16^{19}}$ ni toping.

A) 16 B) 4 C) 32 D) 8

5. Agar $\sqrt[3]{a+\sqrt[3]{a+\sqrt[3]{a+\ldots}}}=2$ bo'lsa, $\sqrt{a-\sqrt{a-\sqrt{a-\ldots}}}$ ning qiymatini toping.

A) 1 B) 2 C) 4 D) 3

6. Birinchi quvurdan ikkinchi quvurga qaraganda ikki barobar ko'p suv oqadi. Ikkalasi birgalikda bo'sh hovuzni 12 soatda to'ldirsa, birinchi quvur hovuzning uchdan bir qismini necha soatda to'ldiradi.

A) 12 B) 4 C) 6 D) 9

7. x va y butun sonlar uchun $xy+x=3y+6$ tenglik bajarilsa, barcha x butun sonlarning yig'indisini toping.

A) 14 B) 10 C) 12 D) 8

8. $x^2-(k-2)\cdot x+3k+4=0$ tenglamaning ikkala ildizi ham 2 dan kichik bo'ladigan k ning barcha manfiy butun qiymatlarini yig'indisini toping.

A) -78 B) -55 C) -66 D) -44

9. $(x^2-x)\cdot(x^2-x-2)<120$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi butun sonlar nechta?

A) 9 ta B) 8 ta C) 6 ta D) 7 ta

10.

$$6\cdot\left(\sqrt{8+x}-\sqrt{5-x}\right)\le\sqrt{(8+x)(5-x)}$$

tengsizlikni qanoatlantiradigan butun ildizlari ko'paytmasini toping.
A) 560 B) 360 C) 120 D) 0

11. Arifmetik progressiya uchun $a_6 = 3$, $a_2 + a_5 = 16$ bo'lsa, a_1 ni toping.
A) 11 B) 15 C) 17 D) 13

12. Soddalashtiring: $\left(\pi < \alpha < \frac{3\pi}{2}\right)$
$\sin\alpha \cdot |\cos\alpha| - \cos\alpha \cdot |\sin\alpha|$.
A) $\sin\alpha$ B) 0 C) $\cos\alpha$ D) $\sin 2\alpha$

13. $tg10^\circ \cdot tg20^\circ + 1$ ifodani soddalashtiring.
A) $\frac{1}{\cos 20^\circ}$ B) $-\frac{1}{\cos 10^\circ}$
C) $\frac{1}{\cos 100^\circ}$ D) $-\frac{1}{\sin 20^\circ}$

14. Agar $\sin x + \cos x = -1{,}02$ bo'lsa, u holda, x soni qaysi chorakda yotadi?
A) IV B) I C) II D) III

15. $tgx = 2$ tenglamaning $\left[0; \frac{\pi}{2}\right)$ oraliqqa tegishli ildizlari soni nechta?
A) 2 B) 1 C) 3 D) 4

16. $y = \sqrt{27 - \frac{1}{3}\left|x - \frac{2}{117}\right|}$ funksiyaning barcha butun qiymatlari yig'indisini toping.
A) 27 B) 25 C) 15 D) 14

17. $2^x = 101$ bo'lsa, $|x-8| + |x-6|$ ifodani soddalashtiring.
A) $2x - 14$ B) 2 C) $14 - 2x$ D) -2

18. Hisoblang:
$\sqrt{\log_{16} 4 + \log_{16} 24 - \log_{16} 6}$.
A) 4 B) 2 C) 16 D) 1

19. $\log_4^2 x - \log_4 \sqrt{x} - 1{,}5 = 0$ tenglamaning eng katta va eng kichik ildizlari nisbatini toping.
A) 16 B) 64 C) 32 D) 2

20. $g(x) = x - 3$, $f(g(x)) = 3x^2 - 7x + 3$ funksiya berilgan bo'lsa, $f'(0)$ ning qiymatini toping.
A) 13 B) 11 C) 4 D) 10

21. $y = 4x^5 - 15x^4 - 3$ funksiyaning $(-1; 1)$ oraliqdagi eng katta qiymatini toping.
A) -3 B) -1 C) -115 D) -2

22. To'g'ri berilgan integrallash formulalarini tanlang:
1) $\int \cos^2 x dx = \frac{1}{2}x + \frac{1}{4}\sin 2x + C$
2) $\int ctg^2 x dx = ctgx + x + C$
3) $\int tg^2 x dx = tgx - x + C$
A) 1; 2; 3 B) 2; 3 C) 1; 2 D) 1; 3

23. Surat va maxraji 40 dan katta bo'lmagan turli tub sonlardan iborat bo'lgan nechta oddiy kasr mavjud?
A) 110 B) 66 C) 132 D) 55

24. Uchburchakning 10 ga teng bo'lgan balandligi uning asosini 10 va 4 ga teng kesmalarga ajratadi. Uchburchakning qolgan ikki tamonidan kichigiga o'tkazilgan mediana uzunligini toping.
A) 11 B) 14 C) 13 D) 12

25. Teng yonli trapetsiyaning qarama-qarshi burchaklari ayirmasi 40° bo'lsa, uning burchaklarini toping.
A) 80° va 120° B) 70° va 110°
C) 75° va 105° D) 80° va 100°

26. N nuqta teng yonli $ABCD$ trapetsiya AB yon tomonining o'rtasi. Agar $AN = 4$, $\angle CND = 90^\circ$ bo'lsa, trapetsiya perimetrini toping.
A) 24 B) 30 C) 32 D) 28

27. Muntazam uchburchakka tomoni m ga teng bo'lgan kvadrat ichki chizilgan.

Uchburchakning yuzini toping.

A) $\frac{m^2(11\sqrt{3}+12)}{12}$ B) $\frac{m^2(7\sqrt{3}+12)}{12}$

C) $\frac{m^2(7\sqrt{3}+12)}{6}$ D) $\frac{m^2(7\sqrt{3}+2)}{12}$

28. $(1;2)$ va $(-3;2)$ nuqtalar orasidagi masofani toping.

A) 5 B) 2 C) 4 D) 6

29. Tekislikdan 4 m masofada yotgan nuqtadan ikkita teng og'ma o'tkazilgan. Agar og'malar o'zaro perpendikulyar va tekislikka o'tkazilgan perpendikulyar bilan 30° ga teng burchaklar tashkil etishi ma'lum bo'lsa, og'malarning asoslari orasidagi masofani toping.

A) $\frac{4\sqrt{6}}{3}m$ B) $\frac{8\sqrt{3}}{3}m$

C) $\frac{4\sqrt{3}}{3}m$ D) $\frac{8\sqrt{6}}{3}m$

30. Uchburchakli og'ma prizmaning asosi tomoni 3 m ga teng bo'lgan muntazam uchburchakdan iborat. Agar prizmaning yon qirrasi asos tomoniga teng bo'lib, asos tekisligi bilan 60° li burchak hosil qilsa, uning hajmini toping.

A) $\frac{81}{8}m^3$ B) $\frac{9}{8}m^3$

C) $\frac{27}{8}m^3$ D) $\frac{27}{4}m^3$

Variant-25

1. a $(a>1)$ shunday eng kichik natural sonki, uni 2017 ga bo'lganda ham, 2018 ga bo'lganda ham 1 qoldiq qoladi. U holda a ni 5 ga bo'lgandagi qoldiqni toping.

A) 3 B) 1 C) 0 D) 2

2. $2<a<6$ va $2<b<10$ bo'lsa, a va b butun sonlar uchun $\frac{1+\frac{a}{b}}{1+\frac{b}{a}}$ kasrning eng katta qiymatini toping.

A) $\frac{7}{3}$ B) $\frac{5}{3}$ C) 7 D) 5

3. Agar $a\in(-1;1)$ bo'lsa, ifodani soddalashtiring:

$$\sqrt[4]{(1-2a+a^2)(a^2-1)(a-1)}:\frac{a^2+2a-3}{\sqrt[4]{a+1}}$$

A) $\frac{\sqrt{a+1}}{\sqrt{a+3}}$ B) $-\frac{\sqrt{a+1}}{\sqrt{a+3}}$

C) $-\frac{\sqrt{a+1}}{a+3}$ D) $\frac{\sqrt{a+1}}{a+3}$

4. Ifodani soddalashtiring: $\sqrt[4]{256a^4b^8c^{12}}$, agar $a<0, c<0$.

A) $2ab^2c^3$ B) $-4ab^2c^3$

C) $4ab^2c^3$ D) $16ab^2c^3$

5. Agar $a<0, b>0$ bo'lsa, $a\sqrt{b^2}+b\sqrt{a^2}-|a-b|$ ifodani soddalashtiring.

A) $b-a$ B) a C) $b-2ab+a$ D) $a-b$

6. Quyidagi

$$\sqrt{x+1-4\sqrt{x-3}}+\sqrt{x+1+4\sqrt{x-3}}$$

ifodani $(3;7)$ oraliqda soddalashtiring.

A) 2 B) $2\sqrt{x+1}$ C) 4 D) $-2\sqrt{x+1}$

7. $\frac{3x+2}{x^2-x-12}=\frac{a}{x-4}+\frac{b}{x+3}$ tenglik ayniyat bo'lsa, $a\cdot b$ ning qiymatini toping.

A) 2 B) 3 C) 4 D) 5

8. a va b sonlari $x^2-6x+3=0$ tenglamaning ildizlari bo'lsa, $\frac{ab^3-a^3b}{a-b}$ ning qiymatini toping.

A) 18 B) -18 C) 20 D) 36

9. x_1, x_2 sonlari $x^2 - kx - k + 6 = 0$ tenglamaning ildizlari va $\sqrt{x_1 \cdot x_2} = 1$ bo'lsa, $\frac{x_1 + x_2}{2}$ ni qiymatini toping.

A) 2 B) 2,5 C) 3 D) 1

10. $x^5\left|x^2 - 7x - 8\right| < 0$ tengsizlik $\left[-8;1\right]$ kesmada nechta butun yechimga ega.

A) 7 B) 8 C) 5 D) 6

11. 1,2,2,3,3,3,4,4,4,4,5,5,5,5,5,6... kamaymaydigan sonlar ketma-ketligida har bir son o'zining qiymati necha bo'lsa, shuncha marta takrorlanadi. Bu ketma-ketlikda 2018-o'rinda turgan sonni toping.

A) 65 B) 62 C) 63 D) 64

12. Ikki son yig'indisi 242 ga, bu sonlardan kattasini kichigiga bo'lganda bo'linma 4 ga, qoldiq esa 22 ga teng sonlardan kichigini toping.

A) 44 B) 52 C) 42 D) 56

13. Hisoblang:

$\cos 10^\circ - 2\cos 50^\circ - \cos 70^\circ$

A) $-\cos 50^\circ$ B) $\sin 40^\circ$

C) $-\sin 50^\circ$ D) $\cos 50^\circ$

14. Agar $tg258^\circ = a$ bo'lsa, $\cos 24^\circ \cdot \left(\frac{a-1}{a+1} + \frac{a+1}{a-1}\right)$ ning qiymatini toping.

A) 1 B) –1 C) 2 D) -2

15. $\sin\left(\pi - x\right) + \cos\left(\frac{\pi}{2} + x\right) = \sqrt{3}$ tenglamaning $[-\pi;2\pi]$ oraliqqa tegishli ildizlari soni nechta?

A) 2 B) 1 C) 3 D) 0

16. $y = x^2 - 4x + 7$ funksiya grafigining $(-1; 1)$ nuqtaga nisbatan simmetrik bo'lgan tenglamasini tuzing.

A) $y = -x^2 + 4x - 7$

B) $y = -x^2 - 8x - 17$

C) $y = -x^2 + 8x - 10$

D) $y = x^2 - 8x - 17$

17. Grafik ko'rinishda berilgan funksiyaning qiymatlar to'plamini toping.



A) $[-4; -1) \cup (-1; 3]$ B) $[-3; -2] \cup [2; 5]$

C) $[-3; 7)$ D) $[-4; 3]$

★ XORAZM ILM ZIYO ★

18. a ning qanday qiymatlarida $9^x - (2a-1)\cdot 3^x + a^2 - 4a = 0$ tenglama ikkita haqiqiy ildizga ega bo'ladi?

A) $\left(-\frac{1}{12};\infty\right)$ B) $\left(4;\infty\right)$

C) $\left(0;\frac{1}{2}\right) \cup \left(4;\infty\right)$ D) $\left(-\frac{1}{12};\frac{1}{2}\right) \cup \left(4;\infty\right)$

19. Hisoblang:

$$\left(3^{2+\frac{\log_3 4}{\log_4 3}} - 9\cdot 4^{\frac{1}{\log_4 3}} + 4^{1+\log_4 25}\right)^{0,5}.$$

A) 100 B) 10 C) 10000 D) 1

20. $(x^2 - 5x + 4)\cdot \ln(5 - x^2) = 0$ tenglamaning ildizlari ko'paytmasini toping.

A) 4 B) -4 C) 10 D) -2

21. $f(x)$ manfiy qiymatli kamayuvchi funksiya va $g(x)$ musbat qiymatli o'suvchi funksiya bo'lsa, $h(x) = f(x)\cdot g(x)$ uchun quyidagilardan qaysi biri to'g'ri?

A) manfiy qiymatli o'suvchi
B) manfiy qiymatli kamayuvchi
C) musbat qiymatli o'suvchi
D) musbat qiymatli kamayuvchi

22. Integralni hisoblang: $\int_1^2 \frac{3x-1}{\sqrt{x}}dx$

A) $3\sqrt{2}$ B) $\sqrt{2}$ C) $2\sqrt{2}$ D) $4\sqrt{2}$

23. Quyida keltirilgan tasdiqlardan qaysilari to'g'ri?
1) Tomonlari $AB=3$, $BC=4$, $AC=5$ bo'lgan ABC uchburchak o'tkir burchakli uchburchakdir; 2) Agar qavariq to'rtburchakning uchta burchagining yig'indisi 200° ga teng bo'lsa, u holda uning to'rtinchi burchagi 160° ga teng bo'ladi; 3) Agar aylana radiusi 3 ga teng bo'lsa, u holda vatari har doim 6 dan kichik bo'ladi; 4) To'g'ri to'rtburchak diagonallari kesishish nuqtasi uning simmetriya markazidir.
A) 2; 4 B) 1; 4 C) 1;3 D) 2; 3

24. Do'konda 5 xil konvert va 4 xil marka sotilmoqda. Konvert bilan markani nechta usulda sotib olish mumkin?
A) 20 B) 18 C) 16 D) 15

25. ABC to'g'ri burchakli uchburchakning katetlari $AB=4$, $AC=6$ va AN bissektrisa bo'lsa, ABN uchburchak yuzini toping.
A) 3 B) 4,8 C) 4 D) 4,2

26. To'gri burchakli $ABCD$ trapetsiyaning B va C burchaklari to'gri, $AB=8$, $BC=6$ va $DC=4$. Trapetsiyaning D uchidan AC diagonaligacha bo'lgan masofani toping.
A) 3,6 B) 3 C) 2,4 D) 2

27. Muntazam ko'pburchak tashqi burchaklarining har biri 30 % kichraytirilsa, boshqa bir muntazam ko'pburchak hosil bo'ladi. Dastlabki ko'pburchak tomonlari sonining eng kichik qiymatini toping.
A) 10 B) 7 C) 12 D) 12

28. $y=2x+6$ funksiya uchun $A(0;1)$ nuqtaga nisbatan simmetrik bo'lgan funksiyani toping.
A) $y=2x+4$ B) $y=2x-5$
C) $y=2x-6$ D) $y=2x-4$

29. $ABCDA_1B_1C_1D_1$ to'g'ri burchakli parallelepipedda $\overrightarrow{AD}=\vec{a}$, $\overrightarrow{AB}=\vec{b}$ va $\overrightarrow{AA_1}=\vec{c}$ bo'lsa, $\overrightarrow{B_1D}$ vektorni $\vec{a}$, $\vec{b}$ va $\vec{c}$ vektorlar orqali ifodalang.
A) $\vec{a}-\vec{b}-\vec{c}$ B) $\vec{a}+\vec{b}-\vec{c}$
C) $\vec{a}-\vec{b}+\vec{c}$ D) $\vec{a}+\vec{b}+\vec{c}$

30. Muntazam oltiburchakli prizmaning balandligi 8 ga, yon yog'ining diagonali 13 ga teng. Prizmaga tashqi chizilgan shar radiusini toping.
A) 12 B) 11 C) $\sqrt{153}$ D) $\sqrt{105}$

★ XORAZM ILM ZIYO ★

Variant-26

1. a va b sonlar o'zaro tub sonlardir. Bu sonlarning eng kichik umumiy karralisi 500 ga teng bo'lsa, $a+b$ ni toping.
A) 125 B) 129 C) 100 D) 14

2. Ifodani soddalashtiring: $\frac{a^4+a^2+169}{a^2+5a+13}$
A) $a^2-5a+13$ B) a^2+13
C) $a^2-6a+13$ D) $a^2-3a+13$

3. Agar $a-b=\sqrt{x}+4$ bo'lsa, a va b lar uchun to'g'ri munosabatni aniqlang.
A) $a>b$ B) $a\le b$
C) $a<b$ D) $a=b+1$

4. Agar x ratsional son bo'lsa, $\sqrt[4]{5+x}+\sqrt{-x-5}-\sqrt{30+x}$ ifodani soddalashtiring.
A) -5 B) 4 C) 6 D) -4

5. a dan b 20% ko'p bo'lsa, b dan a necha % kam bo'ladi?
A) 15 B) 49/3 C) 50/3 D) 20

6. Agar x_1 va x_2 sonlar $x^2-5x+1=0$ tenglama ildizlari bo'lsa, $\frac{1}{x_1+3}+\frac{1}{x_2+3}$ ni hisoblang.
A) $\frac{13}{25}$ B) $\frac{11}{25}$ C) $-\frac{13}{25}$ D) $-\frac{11}{25}$

7. n ning nechta natural qiymatida $n(x-1)=12-n^2$ tenglamaning ildizlari musbat bo'ladi?
A) 2 B) 3 C) 4 D) 1

8. Tenglamalar sistemasini yeching:
$\begin{cases} x+y+xy=0 \\ x^3+y^3+x^3y^3=12 \end{cases}$
A) $\left(1+\sqrt{3};1-\sqrt{3}\right),\left(1-\sqrt{3};1+\sqrt{3}\right)$
B) $\left(1;\sqrt{3}\right),\left(\sqrt{3};1\right)$
C) $\left(1-\sqrt{3};1+\sqrt{3}\right)$
D) $\left(1+\sqrt{3};1+\sqrt{3}\right),\left(1-\sqrt{3};1-\sqrt{3}\right)$

9. $(x^2-3x-2)\cdot(x^2-3x+1)<10$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi butun sonlar nechta?
A) 5 ta B) 3 ta C) 6 ta D) 4 ta

10. Nechta natural son $100<\sqrt{n}<101$ tengsizlikni qanoatlantiradi?
A) 201 ta B) 200 ta
C) 199 ta D) 202 ta

11. Agar $|a|<1, |b|<1$ va
$a+ab+ab^2+ab^3+\ldots=\frac{5}{16}$,
$b+ba+ba^2+ba^3+\ldots=\frac{4}{15}$ bo'lsa,
$80ab$ ni qiymatini toping.
A) 12 B) 6 C) 32 D) 4

12. Arifmetik progressiya quyidagicha berilgan: -4; -2 ; 0; ... . Bu progressiyaning dastlabki 10 ta hadi yig'indisini toping.
A) 60 B) 30 C) 50 D) 40

13. Hisoblang: $\frac{\sin 20^\circ}{\cos 80^\circ - tg30^\circ\cdot\sin 80^\circ}$
A) $\frac{\sqrt{3}}{2}$ B) $\frac{1}{2}$ C) $-\frac{1}{2}$ D) $-\frac{\sqrt{3}}{2}$

14. Agar $12\cdot\sin 4^\circ\cdot\cos 4^\circ\cdot\cos 8^\circ=m$ tenglik bajarilsa, $tg74^\circ$ ni m orqali ifodalang.
A) $\frac{\sqrt{9-m^2}}{3}$ B) $\frac{\sqrt{9-m^2}}{m}$
C) $\frac{\sqrt{3-m^2}}{m}$ D) $\frac{\sqrt{9-m^2}}{9m}$

15. Tenglamani yeching:
$6\sin^2 x+13\sin x+5=0$
A) $x=-\frac{\pi}{6}+2\pi n,\ n\in Z;\ x=\frac{7\pi}{6}+2\pi k,\ k\in Z;$
B) $x=-\frac{\pi}{6}+\frac{\pi n}{2},\ n\in Z;\ x=\frac{7\pi}{6}+\pi k,\ k\in Z;$
C) $x=-\frac{\pi}{6}+\pi n,\ n\in Z;\ x=\frac{\pi}{6}+2\pi k,\ k\in Z;$
D) $x=-\frac{\pi}{3}+2\pi n,\ n\in Z;\ x=\frac{7\pi}{5}+2\pi k,\ k\in Z;$

16.
$y=\sin\left(\pi\left(2x-x^2+\frac{9}{2}\right)\right)-x^2+4x-5$
funksiyaning noli qaysi oraliqqa tegishli?
A) $\left(-\frac{\pi}{2};\pi\right)$ B) $\left(-\frac{\pi}{2};\frac{\pi}{2}\right)$
C) $(0;1)$ D) $(1;2)$

17. Agar $5^a=36$, $6^b=625$ bo'lsa $a\cdot b$ ning qiymatini toping.
A) 8 B) 11 C) 13 D) 10

18. Tengsizlikni yeching: $2^x\le 3-x$.
A) $\left(-\infty;1\right]$ B) $\left(-\infty;1\right]\cup\left(3;\infty\right)$

★ XORAZM ILM ZIYO ★

C) $(-\infty; 1)$ D) $(-\infty; 2)$

19. Hisoblang:

$$2^{\frac{1}{2\log_5 2}} \cdot 5^{\log_5^2 2} - \sqrt{5} \cdot 2^{\log_5 2} - \left(\frac{1}{3}\right)^{\log_3 25}$$

A) -0,04 B) 0,4 C) 0,04 D) -0,4

20. Tenglamaning ildizlari yig'indisini toping:

$\log_{\frac{1}{3}}(2+x) + \log_{\frac{1}{3}}(5+4x) = 0.$

A) -1,25 B) -1 C) 1 D) -3,25

21. Agar $f(x) = \frac{2e^x}{\ln x}$ bo'lsa, $f'(e)$ ni toping.

A) $\frac{2e^{e-1} \cdot (e-1)}{e}$ B) $2e^e$

C) $2e^{e-1} \cdot (e-1)$ D) $2e$

22. Agar $f(x) = g(3x+4)$ shartni qanoatlantiruvchi $f(x)$ va $g(x)$ funksiyalar uchun $g'(10) = -5$ bo'lsa, $f'(2)$ ni toping.

A) -15 B) 15 C) 10 D) -10

23. $x=1$, $y=e^x$ va $y=e^{-x}$ funktsiyalar bilan chegaralangan soha yuzini toping.

A) $\frac{(e-1)^2}{e}$ B) $e-1$

C) $\frac{e-1}{e}$ D) $\frac{(e-2)^2}{e}$

24. To'g'ri berilgan integrallash formulalarini tanlang:

1) $\int \frac{1}{g(x)} \cdot g'(x)dx = \ln|g(x)| + C$

2) $\int a^{g(x)} \cdot g'(x)dx = \frac{a^{g(x)}}{\ln|a|} + C$

3) $\int e^{g(x)} \cdot g'(x)dx = g(x) \cdot e^{g(x)} + C$

A) 1; 3 B) 1; 2; 3 C) 2; 3 D) 1; 2

25. A shahardan B shaharga 6 xil usulda borish mumkin, B shahardan C shaharga esa 4 xil usul bilan borish mumkin. Agar A dan D ga 2 xil usul bilan, D dan B ga ham 2 xil usul bilan borish mumkin bo'lsa, A dan C ga necha xil usul bilan borish mumkin?

A) 44 B) 40 C) 36 D) 56

26. Agar ABC uchburchakning AB va AC tomonlarida M va N nuqtalar olinib, ular tomonlarni mos ravishda $AM : BM = 3:5$ va $AN : CN = 4:5$ kabi nisbatda bo'lsa, CM to'g'ri chiziq BN kesmani qanday nisbatda bo'ladi?

A) 4:3 B) 3:1 C) 5:3 D) 3:2

27. Rombning bir uchidan chiqqan balandliklar orasidagi burchak 72° ga teng bo'lsa, uning o'tkir burchagini toping.

A) 18° B) 36° C) 54° D) 72°

28. Bir burchagi 60° bo'lgan to'g'ri burchakli uchburchakka tomoni 6 sm ga teng bo'lgan romb shunday ichki chizilganki, 60° li burchak ular uchun umumiy, rombning barcha uchlari uchburchakning tomonlarida yotadi. Uchburchakning o'rtacha tomoni uzunligini toping.

A) $9\sqrt{3}$ sm B) $7\sqrt{3}$ sm

C) $18\sqrt{3}$ sm D) $6\sqrt{3}$ sm

29. Koordinata to'g'ri chizig'ida a va c sonlar belgilangan. Quyidagi keltirilgan tengsizliklardan qaysi biri noto'g'ri?



A) $\frac{a}{c} < 0$ B) $-3 < a+1 < -2$

C) $a - c > 0$ D) $-c > -1$

30. Tomoni 2 ga teng bo'lgan kubning biror uchidan unga ichki chizilgan shargacha bo'lgan masofani toping.

A) $\sqrt{3}$ B) $\sqrt{3}-1$ C) $2\sqrt{3}-1$ D) $\sqrt{3}+1$

Variant-27

1. a,b,c musbat butun sonlar uchun $x = 3a+2 = 5b+4 = 7c+6$ tengliklar bajarilsa, x uch xonali sonning eng kichik qiymatini toping.
A) 104 B) 106 C) 945 D) 976

2. Ifodani qiymatini toping:
$$\frac{\left(\frac{1}{24}\right)^3 \cdot \left(\frac{1}{12}\right)^{-9} \cdot 27^{-2} - 80}{0,75^{-2}}$$
A) 243 B) 81 C) 27 D) 729

3. Soddalashtiring:
$$\left(\frac{x^2}{y^3}+\frac{1}{x}\right) : \left(\frac{x}{y^2}-\frac{1}{y}+\frac{1}{x}\right) : \frac{x^2+y^2+2xy}{1+yx^{-1}}$$
A) xy B) 1 C) $\frac{x}{y}$ D) $\frac{1}{xy}$

4. a manfiy bo'lsa, ifodani soddalashtiring: $\sqrt[3]{54a^{2\frac{1}{3}}} \cdot \sqrt[3]{24a^{\frac{2}{3}}}$.
A) $12a^{\frac{2}{3}}$ B) $12a$ C) $6a^{\frac{2}{3}}$ D) $6a\sqrt[3]{6}$

5. Soddalashtiring:
$$2a + \frac{a^3+21a^2+147a+343}{(a+7)^2} - 7$$
A) a B) $2a$ C) $3a$ D) $-2a$

6. Ahmad besh kun, Arslon bir kun ishlaganda bir ishning $\frac{5}{8}$ qismini bajarishadi. Agar Ahmad va Arslon bir kundan ishlasa, aynan o'sha ishning $\frac{3}{8}$ qismini bajarishardi. Ahmad bir o'zi ushbu ishni necha kunda tamomlaydi?
A) 16 B) 10 C) 4 D) 9

7. Tenglamani yeching:
$$\frac{x-1}{1+\sqrt{x}} = 4 - \frac{1-\sqrt{x}}{2}$$
A) 49 B) 81 C) 64 D) 25

8. $\left(a^2-10a+25\right)x = a^2-4a-5$ tenglama a ning qanday qiymatida cheksiz ko'p yechimga ega?
A) $a=5$ B) $a=-1$
C) $a=-1;\ a=5$ D) $a\neq -1$

9. Agar a,b,c manfiy butun sonlar bo'lib, $\frac{1}{a} > \frac{1}{b} > \frac{1}{c}$ tengsizliklar bajarilsa, $|a+b|+|b-c|-|a-c|$ ifodani soddalashtiring.
A) $-2b$ B) $-2a-2c$ C) 0 D) $b-a$

10. $(m-2)(x^2-8x+3) > -2$ tengsizlik m ning qanday qiymatlarida har doim o'rinli bo'ladi.
A) $\left[2;\frac{28}{13}\right)$ B) $\left[1;\frac{28}{13}\right)$
C) $\left[2;3\right)$ D) $\left[2;+\infty\right)$

11. Maxraji 2 ga, $b_1 = -\frac{3}{4}$ ga teng bo'lgan (b_n) geometrik progressiya berilgan. Uning dastlabki 6 ta hadi yig'indisini toping.
A) -45,25 B) -48,25
C) -46,25 D) -47,25

12. $\sin 0,8\alpha - \sin 1,4\alpha - \sin 0,4\alpha + \sin 1,8\alpha$ ifodani soddalashtiring.
A) $8\sin 1,1\alpha \cdot \sin 0,5\alpha \cdot \sin 0,2\alpha$
B) $4\cos 1,1\alpha \cdot \cos 0,5\alpha \cdot \sin 0,2\alpha$
C) $4\sin 1,1\alpha \cdot \sin 0,5\alpha \cdot \cos 0,2\alpha$
D) $8\cos 1,1\alpha \cdot \cos 0,5\alpha \cdot \cos 0,2\alpha$

13. Hisoblang: $\frac{1}{\cos 50^\circ} + \frac{tg30^\circ}{\cos 40^\circ}$
A) 1 B) $\frac{2}{\sqrt{3}}$ C) $\sqrt{3}$ D) $\frac{4}{\sqrt{3}}$

14. Hisoblang. $\arcsin\left(\sin 3\right)$
A) $\frac{\pi}{2}-3$ B) $\pi-3$ C) 3 D) $\varnothing$

15. $\sqrt{3}ctgx + 3 = 0$ tenglamaning eng kichik musbat yechimini toping.

A) $\frac{5\pi}{12}$ B) $\frac{5\pi}{6}$ C) $\frac{\pi}{3}$ D) $\frac{\pi}{6}$

16. $y = (1 + tgx)(1 + ctgx)$ funksiyaning qiymatlar sohasiga tegishli butun sonlar ko'paytmasini toping?

A) 1 B) 4 C) 2 D) 0

17. Grafik ko'rinishda berilgan funksiyaning qiymatlar to'plamini toping.



A) $(-2; 1]$ B) $(-2; 2)$

C) $(-4; 4]$ D) $(-2; 2]$

18. $\frac{(4^x - 2^5)\cdot(3^x - 9^7)}{(2x-5)\cdot(9x-7)} = 0$ tenglamaning ildizi 42 dan necha marta kam?

A) 14 B) 4 C) 7 D) 3

19. Hisoblang:

$(\log_4 6 + \log_6 4 + 2)\cdot(\log_4 6 - \log_{11} 11)\cdot$

$\cdot\log_6 4 - \log_4 6.$

A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

20. Tenglamaning ildizlari yig'indisini toping: $\log_2(2 - x) - \log_2(2 \sqrt{\ }) =$

$= \log_2\sqrt{2 - x} - 0{,}5.$

A) 16/9 B) 13/4

C) 80/45 D) 29/45

21. $y = f(x)$ funksiyaning $(2; 10)$ nuqtasidan o'tkazilgan urinma $(-1; 0)$ nuqtadan o'tadi. Shu funksiyaning $x_0 = -2$ nuqtadagi hosilasini toping.

A) 10 B) -10 C) 20 D) 30

22. Integralni hisoblang: $\int_0^{27}(4\sqrt[3]{x} + 2x)dx$

A) 1002 B) 729 C) 739 D) 972

23. Nuqtalar o'rniga to'g'ri javobni tanlang.

To'g'ri burchakli uchburchak α o'tkir burchagi ... deb shu burchak qarshisidagi katetning gipotenuzaga nisbatiga aytiladi.

A) tangensi B) kotangensi

C) kosinusi D) sinusi

24. Hech bir uchtasi bir to'g'ri chiziqda yotmaydigan 25 ta nuqtadan nechta uchburchak yasash mumkin?

A) 2300 B) 2304 C) 2200 D) 2100

★ XORAZM ILM ZIYO ★

★25. ABC uchburchakning BC tamonida D nuqta olingan. Agar $BD = 16$, $DC = 4$ va $AB = AD = 10$ bo'lsa, $S_{\Delta ADC}$ ni toping.

A) 12 B) 14 C) 10 D) 16

26. Agar to'g'ri to'rtburchakning perimetri 10 ga teng bo'lsa, uning yuzasini eng katta qiymatini toping.

A) 8 B) 6,25 C) 6 D) 6,75

27. Trapetsiyaning asoslari 24 va 30 ga, asosidagi burchaklaridan biri 60° ga teng. Yon tomonlari davom ettirilganda 60° burchak ostida kesishsa, trapetsiyaning yuzini toping.

A) $81\sqrt{3}$ B) $27\sqrt{3}$

C) $13{,}5\sqrt{3}$ D) $40{,}5\sqrt{3}$

28. Bir nuqtadan aylanaga ikkita urinma o'tkazilgan. Har bir urinmaning uzunligi 12 sm, urinish nuqtalari orasidagi masofa 14,4 sm. Aylananing radiusini toping.

A) 6 sm B) 8 sm C) 9 sm D) 10 sm

29. To'g'ri burchakli uchburchakning katetlari 7 va 24 ga teng. Uchburchakning gipotenuzasi orqali o'tuvchi tekislik uchburchakning tekisligibilan 30 burchak tashkil qiladi.

Uchburchakning to'g'ri burchagi uchi bilan tekislik orasidagi masofani toping.
A) 5 B) 4 C) 3,36 D) 3,5

30. Muntazam uchburchakli prizmaning balandligi 5 ga teng. Agar prizmaning yuqori asosi markazi bilan quyi asosining tomoni o'rtasini tutashtiruvchi kesma asos tekislikgi bilan 30 burchak tashkil qilsa, prizmaning yon sirtini toping.
A) 400 B) 500 C) 450 D) 350

Variant-28

1. 72 ga bo'linadigan a sonining natural bo'luvchilari soni 20 ta bo'lsa, a sonining eng katta va eng kichik qiymatlarining farqini toping.
A) 144 B) 72 C) 216 D) 432

2. Hisoblang:
$\left(1\frac{1}{7}\right)\cdot\left(1\frac{1}{8}\right)\cdot\left(1\frac{1}{9}\right)\cdot\ldots\cdot\left(1\frac{1}{76}\right)$
A) 11 B) 11/7 C) 7 D) 76/7

3. Ifodani soddalashtiring:
$\sqrt[5]{b^5}+\sqrt[4]{b^4}-\sqrt[6]{b^6}-\sqrt[7]{b^7}$, bu yerda $b<0$.
A) $0;\ 4b$ B) 0 C) $0;\ -4b$ D) $4b$

4. $a\cdot b\cdot c=7$ bo'lsa
$\left(\frac{4}{a}-b\cdot c\right)\left(\frac{5}{b}-a\cdot c\right)\left(\frac{6}{c}-a\cdot b\right)$
ko'paytmaning qiymatini toping.
A) $-\frac{6}{7}$ B) $\frac{2}{3}$ C) 1 D) $-\frac{5}{3}$

5. Juft sonning o'zidan keyin keluvchi juft sonning uchlangani bilan yig'indisi 70 dan kichik. Ushbu shartni qanoatlantiruvchi juft sonlardan eng kattasini toping.
A) 12 B) 16 C) 14 D) 8

6. Tenglamaning ildizlari yig'indisini toping:
$4(x-3)(x+3)-(x-3)(x^2+3x+9)=0$
A) -6 B) -9 C) 4 D) 8

7. $(x^2-6)x=a$ tenglama a ning qanday qiymatlarida 2 ta haqiqiy ildizga ega bo'ladi?
A) $\pm4\sqrt{2}$ B) $\pm\sqrt{2}$ C) $\left(-4\sqrt{2};4\sqrt{2}\right)$
D) $\left(-\infty;-4\sqrt{2}\right)\cup\left(4\sqrt{2};\infty\right)$

8. $(x^2-3x-2)\cdot(x^2-3x+1)<10$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi eng katta va eng kichik butun sonlar yig'indisini toping.
A) 5 B) 3 C) 2 D) 4

9. $(x^3-4x)\cdot\sqrt{x+1}>0$ tengsizlikning eng katta butun manfiy yechimini toping.
A) bunday qiymat mavjud emas
B) -1 C) -2 D) -3

10. Ketma-ket kelgan ikkita musbat juft sonlar kvadratlarining ayirmasi 116 ga teng. Ushbu sonlardan kichigini toping.
